

Dilnoza GOFUROVA,

Mirzo Ulugbek nomidagi Milliy universitet,

Lingvistika (o'zbek tili) yo'naliши 2-kurs talabasi

O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti v.b PhD M. F. Xomidova taqrizi asosida

DIRECT AND INDIRECT EXPRESSION OF SPEECH ACTS IN UZBEKI

Annotation

This article talks about the formation of speech act theory as a linguistic-philosophical doctrine, the introduction of the concept of speech act into linguistics. The problems of the speech act and the means of speech formation and the critical attitude expressed to the theoretical views put forward in this regard are described. The role and importance of rhetorical interrogative sentences in the expression of indirect speech acts is explained.

Key words: speech act, direct speech act, communicative purpose, purposeful speech, speech communication

ПРЯМОЕ И КОСВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ РЕЧЕВЫХ ДЕЙСТВИЙ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье говорится о становлении теории речевого акта как лингвофилософского учения, внедрении понятия речевого акта в языкознание. Описаны проблемы речевого акта и средств речевого формирования, а также критическое отношение, высказанное к теоретическим взглядам, выдвигаемым по этому поводу. Объясняется роль и значение риторических вопросительных предложений в выражении косвенных речевых актов.

Ключевые слова: речевой акт, прямой речевой акт, коммуникативная цель, целенаправленная речь, речевое общение

O'ZBEK TILIDA NUTQIY AKTNING BEVOSITA VA BILVOSITA IFODALANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nutqiy akt nazariyasining lingvofalsafiy ta'lomit sifatida shakllanishi, nutqiy akt tushunchasining tilshunoslikka kirib kelishi haqida so'z yuritiladi. Nutqiy akt muammolari va nutqni shakllantirish vositalari va bu borada ilgari surilgan nazariy qarashlarga bildirilgan tanqidiy munosabatlar bayon qilingan. Bilvosita nutqiy aktlar ifodasida ritorik so'roq gaplarning o'rni va ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy akt, bevosita nutqiy akt, kommunikativ maqsad, maqsadli nutq, nutqiy muloqot

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikni inson omili bilan o'rganish, tahlil qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qoldi. Insoniyat yashar ekan lisonidagi mavjud so'zlar tilida aks etadi. Har bir millatga xos nutqiy aktning bilvosita va bevosita ifodalash usullari bor. Har doim ham gapni o'z egasiga yetkazishda to'g'ridan to'g'ri ifodalash yaxshi natijalarga olib kelmaydi. O'zbeklarga xos "Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit" maqoliga xos bo'lgan bilvosita nutqiy aktlar kundalik turmushda ko'plab uchraydi. Bilvosita nutqiy akt ishtirokchilarining lisonida oldindan xabardorlik, lingvistik bilim va nutqiy vaziyat muhim omil sanaladi. Eng muhim jihatni so'zlovchi va tinglovchi bilvosita nutqiy akt haqida ma'lumotga ega bo'lishi va nutqiy vaziyat. Ko'chada ketayotgan yo'lovchidan "Soat nechi bo'ldi?" savoli so'ralsa, u vaqtini aytish kerakligini tushunadi va bu bevosita nutqiy aktadir. Ammo xuddi shu savolni kechikkan xodimga boshlig'i bersa, "Kech qolding" mazmunidagi hukmni tushunadi.

Nutq harakatlari bevosita yoki bilvosita bo'lishi mumkin. "Menga bu stakanni bera olasizmi?" Gap to'g'ridan-to'g'ri savol bersa, bilvosita so'rovni o'z ichiga oladi (Kilich, 2009: 83).

Ostinning so'zlariga ko'ra, so'zni aytayotganda, odam uchta turli harakatdan birini birinchi o'ringa qo'yadi: to'g'ridan-to'g'ri, so'zma-so'z, so'zma-so'z. Chigirtka mazmunli gapni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. So'zlovchining minnatdorchilik bildirish, rad etish yoki ruxsat so'rash kabi harakatni ham harakat, ham so'z orqali amalga oshirishidir. Ta'sirli nutq so'zlovchining niyatiga qarab, qabul qiluvchiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan harakatdir (Leech, 1983: 135). "Bu yerda juda issiq." grammatic gap (locutionary) bo'lib, u oynani ochish so'rovi sifatida qo'llanilsa, so'zlashuv ma'nosiga ega bo'ladi, qabul qiluvchining oynani ochishi ham so'z birikmasidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asr ikkinchi yarmidagi rivoji shu davrda shakllangan nutqiy akt nazariyasining lingvofalsafiy ta'lomit sifatida shakllanishi bilan bog'liq. Nutqiy akt tushunchasining tilshunoslikka kirib kelishida amerikalik olim, pragmatik asoschisi[1] Ch.S.Pirsning tilga mantiqiy-falsafiy kategoriya deb qarashi asos bo'lgan. Nutqiy akt— muayyan jamiyatda qabul qilingan nutqiy xulq-atvor tamoyillari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli nutq harakati sanaladi.[2] Ko'rinaliki, nutqiy akt - lingvistik xulq-atvor qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli kommunikativ harakat bo'lib, so'zlovchi (adresant), tinglovchi (adresat) va nutqiy vaziyat kabi uchta komponentni o'z ichiga oladi. Biror kishining so'z yordamida muloqot qilishi, yoki kimdir biror narsa qilish niyatida ekanligini nutq orqali ifodalashi nutqiy aktini keltirib chiqaradi. Nutqiy akt muammolari va nutqni shakllantirish vositalari dastlab tilshunoslikda V. Gumboldt, S. Balls, S. Kartsevskiy, L. P. Yakubinskiy, K. L. Bulsra, E. Benveniste, M. M. Baxtin va boshqalarning konsepsiyalarida uchraydi. Nutqiy aktning dastlabki rivojlangan nazariysi L.Vitgenshteyn tomonidan ishlab chiqilgan. U nutq turli maqsadlarni ifodalashini va nutq o'z egasidan ajralmagan holda tahlil qilinishi kerakligi g'oyasini ilgari surib, uni "til o'yinlari" misolida tushuntiradi. Lingvistik falsafa maktabi vakillari J.Ostin va J.R.Searl ushbu ta'lomit poydevarini yaratagan L.Vitgenshteyn, Ch.S.Pirs[3] va uning semiotika sohasidagi eng mashhur izdoshi C.Morris g'oyalarini rivojlantirib pragmatik funksiyalar nazariyasini ishlab chiqdilar. Ularning tadqiqotlari asosida tilni harakat sifatida tushunish yotadi. Nutq akti uzoq vaqt davomida pragmatik tahlil birligi hisoblaninib, bu nazariyaning o'rganish ob'ekti nutq akti, ya'ni ma'lum bir muloqot sharoitida tinglovchiga murojaat qilgan so'zlovchining nutqi, nutqda qabul qilingan nutqiy xulq-atvor tamoyillari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli nutq harakatidir. Ingliz faylasufi J.Ostin va amerikalik olimlar J.Serl va G.Gris[4] ushbu nazariyaning asoslarini ishlab chiqdilar. Ular birinchi marta fikrni aytish nafaqat ma'lumot uzatish, balki boshqa ko'plab harakatlar (tabriklash, ogohlantirish va boshqalar) bo'lishi mumkinligini ta'kidladilar. Va niyoyat, 1950- yillarda J.Ostin nutqiy aktlarni nisbatan mukammal mezonlarini ishlab chiqdi. Unga ko'ra aloqa birligi gap yoki matn faqatgina xabar emas, balki savol, tushuntirish, ogohlantirish, tavsif, minnatdorchilik, pushaymonlik kabi nutqiy harakatlarni bajaradi. J.Ostin nutq akti bilan bog'liq fikrlarini "Слово как действие" asarida keltiradi [5].

Ularning fikricha, lisoniy faoliyatning ko‘p vazifaligiga va uning insonning hayot kechirish shaklidan ayri emasligiga e’tibor qaratishdi. Gap asl ma’nosidan tashqari tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va’da berish kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladi. Nutqiy akt-ma’lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma’nosining so’zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan boyitilishi, idrok etilishi natijasidir.

So’zlovchi	Gaplar lisoniy tizimi
tinglovchi	Doimiy lisoniy ma’no

Ma’noning konteksdagi o’zgarishlari[6]

O‘zbek tilshunosligida Sh. Safarov, M. Hakimovlar tomonidan nutqiy akt nazariyasi o‘rganilgan. O‘zbek tilshunosligida bilvosita nutqiy aktlar deyarli barcha uslublarda (rasmiy va ilmiy uslub bundan mustasno) faol qo‘llaniladi. Badiiy, publitsistik va so’zlashuv uslubida ifodalanadi.

Nutq harakatini o’rgatishni bilvosita o’z ichiga olgan ko’rsatmalarga misol sifatida quyida namunali ko’rsatma berilgan.

1-misol:

“O‘quvchilaringizga quyida keltirilgan misol vaziyatlarni o’qing. Misol holatlar

- Siz uyda siz uchun juda muhim bo‘lgan imtihonga tayyorlanyapsiz. Biroq, yuqori qavatdag‘i qo’shningiz baland ovozda musiqa tinglaydi va bu sizni juda bezovta qiladi. Unga bu xatti-harakat jamiyatda yashash talablariga mos kelmasligini tushuntirishingiz kerak. Bunday vaziyatda unga nima deysiz?

- Do’stingiz o’ziga o’xshamaydigan odamlarni doimo tanqid qiladi. Bu borada xatolik ba’zan xafa bo’ladi. Siz uni odamlarga nisbatan bag’rikengroq bo‘lishga va jamiyatdag‘i har bir shaxs erkin fikrlay olishiga ishonitirishingiz kerak. Bunday vaziyatda unga nima deysiz?

Talabalaringizdan yuqoridaq vaziyatlardan birini tanlashni va nutq matnnini yozishni so‘rang, ular bunday vaziyatda o’z his-tuyg’ulari va fikrlarini qanday eng yaxshi ifoda etishlarini aniqlaydilar. Talabalaringiz ikki daqiqada o’zlarini tayyorlagan matnlardan foydalaniib, o’z nutqlarini so‘zlasin”. (8-sinf turk tili o‘qituvchilari uchun qo‘llamma, Batu Yay., 2008: 269-bet)

Ritorik so‘roq gaplar: Onani kim sevmaydi? Kim o’z Vataniga xoinlik qilishi mumkin? Ushbu gaplarga javob berish shart emas, chunki javobi savolning ichida yashiringan, ya’ni “Onani hamma yaxshi ko‘radi”, “Hech kim o’z Vataniga xoinlik qilishi mumkin emas” mazmunidagi bilvosita nutqiy aktlar mavjud. O‘zbek tilida so‘zlashuvchi, lisoniy gaplar tizimi mavjud va lingvistik bilimga ega vakillarigina bu gapning bilvosita ekanligini ilg‘aydi. Agar boshqa millat vakili ushbu jumilalarni eshitса, ular uchun oddiy so‘roq gap bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, nutq vaziyati so‘zlovchi va tinglovchini bir-birini anglashi uchun asosiy mezon hisoblanadi. So‘zlovchi nimani nazarda tutayotgani ayni vaqtida moment bilan bog‘liq. Tinglovchining idroki, tushunish prinsipi hech vaqt so‘zlovchi bilan mos tushmasligi mumkin, chunki bu insondonning idroki, salohiyati, tilga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liq. Bolakay buvisiga dedi: -Buvijon, televizorni pasaytiring dars qila olmayapman. Buvisi ichida “qariganingda hech kimga yoqmaysan, qulog‘im og‘irlashib qolgani malol kelyapti” mazmunidagi xulosaga keladi. Pragmatikaning obyekti sifatida bilvosita nutqiy aktlar so‘zlovchi va tinglovchining ayni vaqtida muloqotida ma’noning konteksga ko‘ra o’zgarishidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tilshunoslikda so‘zlovchining kommunikativ maqsadiga ko‘ra, nutqiy aktning bevosita va bilvosita turlari ham farqlanadi. “Muayyan nutqiy akt uni ifodalashga xoslangan sintaktik struktura orqali bayon etilganda nutqiy aktning bevosita ifodalananish amal qiladi. Masalan, so‘roq gap shaklidagi sintaktik qurilmalar orqali so‘roqni ifoda etuvchi axborotning yoki darak gap orqali xabarni ifoda etuvchi aktlar sintaktik semani bevosita ifodalovchi nutqiy aktlar hisoblanadi. Muayyan axborotni uni ifodalashga xoslanmagan sintaktik struktura orqali bayon etuvchi nutqiy akt ko‘rinishlari bilvosita nutqiy aktlar sanaladi”. Bunda ikki xil holat kuzatiladi: a) sintaktik strukturaning birlamchi ma’nosи saqlanib qoladi, unga qo‘srimcha sintaktik ma’no yuklandi [7]. Boshqacha aytganda, ayni sintaktik struktura orqali u ifodalashga xoslangan axborot va qo‘srimcha axborot bayon etiladi.

Tahil va natjalar. Sh.Safarovning ma’lumot berishicha, J.Serl va uning izdoshlari bilvosita nutqiy aktida bir payting o‘zida ikki illokutiv harakat bajariladi deb hisoblaydilar. Olim bu xulosani ma’qullagan holda pragmatik ma’no ko‘chishi va shu yo‘sinda bilvosita nutqiy akt hosil bo‘lishida birlamchi ma’no yo‘qolmasdan, balki qo‘srimcha, ikkilamchi ma’no bilan bitishadi, deb hisoblaydi. U bu turdag‘i nutqiy tuzilmalarda birlamchi mazmunning saqlanishini “Can you open the door?” («Eshikni ochib qo‘ya olmaysizmi?») kabi gaplarga har qanday holda ham «Ha» yoki «Yo‘q» deb javob berish imkonli borligida ko‘rish mumkin, deb hisoblaydi. Bizningcha, bu tipdag‘i gaplarda har doim ham birlamchi sintaktik ma’no saqlanib qolavermaydi. «Eshikni ochib qo‘ya olmaysizmi?» gapida savolga javob berish imkonining mavjudligi gap kesimi tarkibida qo‘llangan olmoq ko‘makchi fe’li bilan bog‘liq. Mazkur ko‘makchi fe’li harakatni bajarishga imkoniyat bor-yo‘qligi ma’nosini hosil qiladi. So‘zlovchi muayyan shaxsning eshikni ochib qo‘yishga imkoniyati bor yoki yo‘qligini aniqlash va shu asosda uni harakatni bajarishga undashni maqsad qilgan hollarda olmoq ko‘makchi fe’lli qurilmalardan foydalaniib. Agar ayni gap «Eshikni ochib qo‘ymaysizmi?» tarzida tuzilsa, gapdan harakatni amalga oshirish imkonli mavjud yoki mavjud emasligi ma’nosini yo‘qoladi va bunda o’z-o‘zidan savolga javob berishga hojat qolmaydi.

Shunisi xarakterlikki, «Eshikni ochib qo‘ymaysizmi?» gapi orqali so‘zlovchi iltimos aktini ifoda etishni maqsad qilgan bo‘lsa, savolga “Albatta” yoki ba’zi hollarda inkorni ifoda etuvchi javob-replikani qaytarish mumkin bo‘ladi. [8] Agar so‘zlovchi mazkur gap orqali buyruq aktini ifoda etishni maqsad qilgan bo‘lsa, ayni gapga javob berish lozim bo‘lmay qoladi. Demak, bu tipdag‘i ritorik so‘roq gaplarda birlamchi ma’noning saqlanishi yoki yo‘qolishida gapdan ko‘zlangan maqsad hamda shu asosda tanlanayotgan sintaktik struktura muhim o‘rin tutadi [9].

Kesimi ko‘makchi fe’lli birikma bilan ifodalangan ritorik so‘roq gap orqali hosil qilingan bilvosita nutqiy akt turi kichik yoshdag‘i bolalar muloqotida ham ko‘p kuzatiladi. Bolalarga xos aksariyat bilvosita nutqiy aktlar ularning yosh xususiyati va kognitiv darajasi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi va kattalarda kulgi uyg‘otadi. Ko‘pincha maktabgacha yoshdag‘i bola tomonidan hosil qilingan bevosita nutqiy aktini ifodalovchi so‘roq gap kesimi “ketmoq” ko‘makchi fe’lli birikmadan iborat bo‘ladi. Masalan,

- Qizim, kel, kiyimlaringni yechib vannaga tushgin, cho‘miltiraman.

- Oyi, og‘zimdag‘i konfetim cho‘milib ketmaydim? (M. Sodiqova. “O‘zi ham shirin, so‘zi ham”)

Mazkur nutqiy vaziyatda qo‘llangan “ketmoq” ko‘makchi fe’li ish-harakat (cho‘milish)ning tugal bajarilishini ifodalagan. Bunday holatlarda bolalarga xos bilvosita nutqiy aktning quyidagi turlari namoyon bo‘ladi:

1) Darak-ta'kid akti. Nutqiy aktning bu turi bola tomonidan "Og'zimdag'i konfetim cho'milib (yuvilib, suvda erib yo'q bo'lib) ketadi-ku!" presuppozitsiyasi orqali anglashiladi;

2) istak-inkor akti. Bola nutqiy aktning bu turiga "Og'zimdag'i konfetim cho'milib ketishi (yuvilib, suvda erib yo'q bo'lib ketishi)ni istamayman" tarzidagi yashirin axborot orqali ishora qiladi. [10]

Kichik yoshdagi bola nutqida "qanday" olmoshi ishtirokida tuzilgan ritorik so'roq gaplar ham faol qo'llanadi. Bunda lingvistik presuppozitsiya orqali ifodalananadigan bilvosita nutqiy akt turi gap tarkibidagi so'roq vositasiga tushgan mantiqiy urg'u orqali anglashiladi. Masalan,

Kechqurun yotishganda opalari kichkintoy Muniraga, o'rgangan ertagingni bizga aytib ber, deb "iltimos" qilishdi.

Munira ularga javoban:

Bo'limasa chiroqni yoqing, qorong'ida qanday eshitasiz, – dedi.

Ko'rindiki, ushbu kommunikativ vaziyatda mantiqiy urg'u so'roq vositasiga ("qanday" olmoshi)ga tushgan. Bu esa o'z navbatida "Qorong'ida eshitmaysiz" presuppozitsiyasini uyg'otgan. Shu tariqa bola tomonidan bilvosita nutqiy akt — darak-inkor akti ifodalangan.

Ba'zan kichik yoshdagi muloqot sub'ekti kattalardan farqli ravishda sof so'roq gap orqali bilvosita nutqiy aktini ifodalamoqchi bo'ladi. Biroq bunda bolaning ichki niyati nutq adresatiga ma'lum bo'limasa-da, u bolaning savolida qandaydir istak yashiringanini idrok etadi. Quyidagi dialogik nutqda shunday holat kuzatiladi:

- Oyi, qachon biznikiga mehmon keladi?

- Nima qilar eding?

- Ko'pgina konfet yeyardik (M.Sodiqova. "O'zi ham shirin, so'zi ham").

Anglashiladiki, yuqoridagi kabi holatlarda bola tomonidan ifodalangan illokutiv maqsadni faqat unga savol berish orqali aniqlash mumkin bo'ladi. Kichik yoshdagi bola nutqida bu kabi so'roq gaplar orqali nafaqat istak, balki darak, iltimos yoki buyruq akti ham ifodalaniishi ko'p kuzatiladi.

Xulosa va takliflar. Tilshunoslikda nutq aktlari hodisalarini o'rganish doimo dolzarb masala sifatida qaraladi va shu bilan birga nutqiy aktning lingvopragmatik xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatni kasb etadi. Ularni nutq a'zolari hisoblangan tinglovchi va so'zlovchi o'rtasida sodir bo'layotgan nutqiy aktlarni tinglovchi ruhiyatiga qay darajada ta'sir etishiga qarab turli kategoriyalarda alohida-alohida tahlil qilish orqali tilning pragmalingvistik sohasidagi ko'plab tilsimlarini ohib berish imkoniga ega bo'lamiz. Bu bilimlar tilning madaniyatlararo muloqot jarayonida va qiyosiy tipologiya sohalarida yo'lchi yulduz vazifasini o'taydi.

ADABIYOTLAR

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - Toshkent: O'zME, 2008.
2. Leontev A.A. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. – M.: Politizdat, 1977.
3. Hakimov M.H. O'zbek tilida matnning pragmatik talmiqi: Filol. Fan. d-ri diss. - Toshkent, 2001.
4. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar //http://tapemark.narod.ru/les/412c.html.
5. Pocheppsov O.G. Osnovy pragmaticeskogo opisaniya predlojeniya. - Kiev, 1986.
6. Serl Dj.R. Chto takoe rechevoy akt? V kn.: Novoe v zarubejnoy lingvistike. Vyp. 17. - M.: Progress, 1986.
7. Kurbonova M. Bolalarga xos nutqiy akt turlarining pragmalingvistik tahlili (P.Qodirov asarlari misolida) // Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim. 2016. - No4.
8. Arso Setyaji. How speech acts work in translation: an analysis on speech acts in translating a script of Titanic film //UNS Journal of language studies – 2014. – Vol. 03. – №.01. – P.18.
9. Buzrukova M. O'zbek badiiy matnida undash konstruksiyalari //Xorijiy filologiya – 2020. – №1. – B.108
10. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008. – B.77-82.
11. Searle J.R. A classification of illocutionary acts //Language in society – 1976. – Vol. 5 – №1. – P.1.
12. Choerunnisa R. An analysis of speech acts in the dead poets society: a thesis. – University of Yogyakarta, 2015.